

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi | 6 |
| Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor | |
| O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi..... | 11 |
| Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi | |
| “Yashil” iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari | 18 |
| Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant | |
| Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash..... | 24 |
| Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich , PhD | |
| O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish..... | 27 |
| Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD | |
| Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi | 34 |
| Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent | |
| Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari..... | 39 |
| Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi | |
| Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar..... | 44 |
| Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi | |
| Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili | 50 |
| Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant | |
| Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati | 56 |
| G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi | |
| Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish | 61 |
| Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi | |
| Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli..... | 65 |
| Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant | |
| Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar | 71 |
| Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD) | |
| Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций | 78 |
| Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич , независимый исследователь | |
| Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий..... | 83 |
| Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант | |
| Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati..... | 89 |
| Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi | |
| Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni | 94 |
| Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi | |
| Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari..... | 99 |
| Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi | |
| “Universitet-ishlab chiqarish” integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari..... | 103 |
| Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent | |
| Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi..... | 108 |
| Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant | |
| Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar | 114 |
| Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari | 119 |
| Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi | |
| Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country | 125 |
| Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher | |



| | |
|--|-----|
| Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari..... | 129 |
| Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi | |
| Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution..... | 133 |
| Mirziyo Sodikov Odiljon ogli | |
| Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili..... | 138 |
| Ro'zmamatov Abbos Tolibjon o'g'li, magistrant | |
| Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish..... | 144 |
| Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant | |
| Ekspost – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida..... | 151 |
| Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi | |
| Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны..... | 156 |
| Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант | |
| Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi..... | 161 |
| Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi | |
| Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni..... | 169 |
| G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant | |
| Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане..... | 174 |
| Жуманиязова Феруза, PhD, доцент | |
| Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari..... | 179 |
| Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD | |
| Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari..... | 184 |
| Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD) | |
| Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni..... | 190 |
| Nilufar Sharipova, PhD | |
| Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar..... | 197 |
| Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent | |
| Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari..... | 201 |
| O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayansh doktorant | |
| Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi..... | 208 |
| Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD | |
| Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие..... | 212 |
| Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь | |
| IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari..... | 216 |
| Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD | |
| Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения..... | 222 |
| Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi | |
| Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari..... | 227 |
| Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi | |
| Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish..... | 231 |
| Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi | |
| Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili..... | 238 |
| Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD | |
| Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана..... | 243 |
| Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант | |
| Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish..... | 249 |
| Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD | |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni..... | 254 |
| Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant | |
| Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики..... | 259 |
| Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент | |
| Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati..... | 264 |
| Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD | |
| Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari..... | 268 |
| Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD) | |



| | |
|---|-----|
| O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari | 272 |
| Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent | |
| Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея..... | 277 |
| Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь | |
| Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish..... | 282 |
| Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant | |
| Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish..... | 290 |
| N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant | |
| Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili..... | 293 |
| Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD | |
| Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili..... | 298 |
| Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant | |
| Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка..... | 304 |
| Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры | |
| Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari | 310 |
| G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi | |
| Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari..... | 315 |
| Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant | |
| Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish..... | 320 |
| Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent | |
| Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari..... | 327 |
| Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant | |
| Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli | 330 |
| Norov Akbar Ruzimamatovich | |
| Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi | 335 |
| Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n. | |
| Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba..... | 341 |
| N.N.Ro'ziyev | |
| O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish..... | 350 |
| Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies..... | 356 |
| Nosirova Charos | |
| MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari | 364 |
| Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant | |
| Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari | 369 |
| Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi | |
| Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili | 374 |
| Xatamov Nurbek Ochildiyevich , erkin tadqiqotchi | |
| Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала..... | 380 |
| Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант | |
| Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами | 386 |
| Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры | |
| Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili | 396 |
| S.T.Toshaliyeva , PhD | |
| Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida..... | 403 |
| Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi | |
| Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida..... | 407 |
| Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi | |
| Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish | 412 |
| Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD | |
| Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish..... | 416 |
| Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent | |
| Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar..... | 421 |
| M.A.Saparova , talaba | |



QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARINING YOVVOYI AJDODLARINI GENOFOND SIFATIDA ASRASH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ZARURATI



Sherhali Xolliyev
Qarshi davlat universiteti
Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda aholini to'yimli va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash muhim masala hisoblanadi. Shu sababli madaniylashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini ham saqlab qolish va ulardan samarali foydalanish zarurati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, madaniylashtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlari, genofond, yovvoyi ajdod, ishtiyoq, anzur piyoz, xom ashyo, to'yimli ozuqa, ekstremal iqlim sharoitlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, iste'molchi

Аннотация: В настоящее время важным вопросом является обеспечение населения питательными и качественными продуктами питания. Поэтому подчеркнута необходимость сохранения и эффективного использования дикорастущих предков возделываемых сельскохозяйственных культур.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, одомашненные сельскохозяйственные культуры, генфонд, дикий предок, пассия, лук анзур, сырье, питательное питание, экстремальные климатические условия, экономические операторы, потребитель

Abstract: Currently, an important issue is to provide the population with nutritious and high-quality food. Therefore, the need to preserve and effectively use the wild ancestors of cultivated crops is emphasized.

Key words: Agriculture, crops, gene pool, wild ancestor, passion, anzur onion, raw materials, nutritious nutrition, extreme climatic conditions, economic operators, consumer

KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish eng avvalo mamlakat aholisini to'yimli va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'min etish maqsadlariga va shuningdek agrar sohaning eksport salohiyatini oshirishga qaratilmoqda. Chunki "BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ... to'yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda. Ana shunday sabablar tufayli 160 milliondan ortiq bola bo'yining o'sishi, jismoniy va intellektual rivojlanishiga doir kamchiliklardan aziyat chekmoqda"¹.

Dunyoda sodir bo'layotgan tabiiy-iqlim o'zgarishlari, inson faoliyati salbiy oqibatlarini natijasida ekologik vaziyat yomonlashib borishi qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar-maydonlari kamayishiga olib kelayotgan bir paytda, aholi sonining tez sur'atlar bilan ortib borayotganligi, sayyoramiz aholisi uchun oziq-ovqat manbai sifatida qishloq xo'jaligi tarmog'ini barqaror rivojlantirishga alohida talablar qo'ymoqda. Bugungi kunda rivojlanish darajasidan qat'iy nazar barcha mamlakatlarda bunday talablardan asosiysi va eng muhimi – bu mamlakat aholisini yetarli miqdordagi tarkiban to'yimli va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'min etish vazifasidir.

Yuqorida qo'yilgan vazifa keyingi yilliklarda dunyo olimlari va amaliyotchilarini tashvishga solayotgan dolzarb muammolar qatoriga kirdi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishga e'tibor yanada ortmoqda. Shu bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari xususan, sanoatning turli sohalarida qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan xom ashyoga bo'lgan talab doimiy ravishda ortib bormoqda.

¹ D. N. Saidova, I. B. Rustamova, Sh. A. Tursunov. "Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi". O'quv qo'llanma. T.: "O'ZR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi" bosmaxonasi nashriyoti, 2016. –257 b.



Jamiyat uchun katta miqdordagi moddiy ne'matlar yaratuvchi, minlab insonlarni ish bilan, demak daromad bilan ta'min etuvchi, qator sanoat tarmoqlari borki ular faqatgina qishloq xo'jaligi tarmog'i uchun mahsulot yetishtiradi. Bunda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojlanishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan mutanosib ravishda rivojlanib borishi taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni saqlab qolish borasida qator xorijiy davlatlar olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borishga. Jumladan, Frankevich N., Ajiyev A., Danilova N., Semenova V., Kostanyeda-Alvarez N., Dugina Y., Grummo D., Zelenkevich N., Bondarev A., Novgorodtseva M., Bolotova N., Davoyan R., Bebyakina I., Ryabova D., Rajapov M., Konarev A., Konarev V., Gubareva N. kabi olimlar ilmiy ishlarida o'rganilayotgan masala yuzasidan tavsiyalar o'z aksini topgan².

Shuningdek madaniylashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlaridan foydalanish hamda ularni saqlash muammolari bilan bog'liq tadqiqotlar mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida ham yoritilgan. Xususan, Ajiyev A., Xolmo'minov J., Skripnikov N., Abdullayev F., Yakubov M., Xushmatov N., Chernova G., Xolmurotov M., Muxamedjanov N., Qayimov A., Djavakyans Y., Raximov Z., Sultanov R., Muxsimov N., A. To'rayev³ kabi olimlar tomonidan mazkur mavzu doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash, iqtisodiy hisob-kitob, ekspert baholash va monografik kuzatish usullaridan keng foydalanildi.

Respublikamiz sharoitida yurtimiz aholisining yarmidan ortig'i istiqomat qiladigan qishloq joylarda aholini ish bilan band qilish va ularning oilaviy budjetlari daromad qismi shakllanishida qishloq xo'jaligi tarmog'ining asosiy salmoqqa ega ekanligi, uning jamiyat hayotidagi muhim ijtimoiy vazifasini namoyon qiladi.

Yuqoridagi vaziyatlar qishloq xo'jaligi tarmog'ining resurs va xom ashyo yetkazib beruvchi sifatidagi ahamiyatini ko'rsatayotgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi tarmog'i xo'jalik yurituvchi subyektlarining sanoat mahsulotlariga doimiy va barqaror iste'molchi sifatida bozorda ishtirok etishi, sanoat tarmoqlari rivojlanishini moliyalashtiruvchi soha sifatida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari ta'kidlanganidek, alohida sanoat tarmoqlari, zavodlar borki ular faqatgina qishloq xo'jaligi uchun sanoat mahsulotlari tayyorlash yo'nalishida faoliyat olib borishadi. Bunda qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun tayyorlanadigan traktorlar, mashinalar tizimi, mineral o'g'itlar, neft mahsulotlariga (unumdorligi, bahosi, foydalanish xavfsizligi, bozor orqali yetkazib berish davriyligi) qishloq xo'jaligi qo'yadigan talabning miqdor va sifat jihatidan o'zgarib borishi sanoat tarmoqlari subyektlarida fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, ilm-fan yutuqlaridan kengroq foydalanishga turtki beradi.

Uzoq yillar davomida mamlakatimizda agrar tarmoqni zamon talablari darajasida rivojlantirish yo'nalishidagi fundamental va amaliy ilmiy salohiyatni shakllantirish, mustahkamlash borasida olib borilgan ishlar natijasida

2 Франкевич Н. Дикие сародичы культурных растений юго-западного Копет-Дага и мероприятия по их охране. / авт. диссер. на канд. биол. наук. –1983. Ленинград., Данилова Н., Семенова В. Дополнительный список диких родичей культурных декоративных и лекарственных растений флоры якутии. –Вестник Алтайского государственного аграрного университета. -№9(1017), –2013. –с. 43–46., Костаньеда-Альварез. Диких родственников культурных растений также нужно сохранять в генетических банках. Биотехнология, генетические банки, генетические разнообразия, культурные растения. –ИА. Научная Россия. –2016. -№23., Дугина Е. Современные растения и их дикие предки. (2018 г.). <https://www.liveinternet.ru/users/4742304/post440534256/>, Груммо Д., Зеленкевич Н. Опыт стоимостной оценки биологического разнообразия и экономических услуг. –Минск. –"Конфидо". –Сборник международной конференции. 7–9 октября 2015 г. –с. 49., Бондарев А., Новгородцева М. Сохранение биоразнообразия в российской части Алтае-Саянского региона. –Эко-бюллетен. –Ин-эка. –2010., Болотова Н. Биологические разнообразия и проблемы его сохранения. –Волгоградский государственный университет. –2016. https://spbr.ru/ru/councils/ecology/school_science/bio_diversity/, Давоян Р., Бебякин И. и др. Систематические формы как основа для сохранения и использования генофонда диких сародичей мягкой пшеницы. –Вавиловский журнал генетики и селекции. –2012., –Том 16. -№1., –с. 44., Рябова Д. Дикие сародичы плодовых растений сем. ROSACEAE Корельского и Ижорского флорентических районов и проблемы их сохранения in situ. –Санкт–Петербург. –НИИ растениеводства им. Н. Вавилова. авт дисс. канд. наук. –2004., Ражапов М. Обучения население и в школьных курсах сохранении природы важно. –Ашгабат. –Обучение по сохранении биоразнообразия. –2000 –с. 71., Конарев А. В., Конарев В. Г., Губарева Н. К. и др. Белки семян как маркеры в решении проблем генетических ресурсов растений, селекции и семеноводства // Цитология и генетика –Москва. –2000. -№2: 91–104. с3

3 Ажиев А. К изучению видового состава диких сародичей культурных растений Каракалпакстана и Хорезма. <http://scientificjournal.ru/images/PDF/2016/VNO-21/k-izucheniuyu-vidovogo-sostava.pdf>, Абдуллаев Ф., Якубов М. Национальная информационная система по диким сародичам культурных растений в Узбекистане. –Алма-Ата. Тезисы докладов научной конференции молодых ученых и аспирантов. –3–4 декабря 2009 г. –с. 60., Қайимов А., Чернова Г. М., Холмуротов М. Йўқолиб кетаётган ноёб хандон пистанинг маҳаллий навлари селекцияси // Экология хабарномаси. –Тошкент, 2010. – №2, – Б. 36–37., Чернова Г. М., Султанов Р. А., Мухсимов Н. П. О проблеме сохранения и рационального использования дикорастущих сародичей фисташки Бабатага // Региональная конференция молодых ученых 11–12 октября 2005. –Самарканд, – С. 54–57., Холлиев Ш., Хушматов Н. Қишлоқ хўжалиги барқарорлигини таъминлашда биогенетик ресурслардан самарали фойдаланиш масалалари. Илмий-амалий анжуман тезислари тўплами. ГулДУ. –Гулистон: –Декабрь. –2008. –76–78 б., Холмўминов Ж., Скрипников Н. Правовое регулирование использования и охраны диких сародичей культурных растений в республике Узбекистан. <https://articlekz.com/article/7139>.



o'nlab muhim ilmiy muassasalar, oliy va maxsus o'quv yurtlari, ilmiy laboratoriyalar va ilmiy markazlar tashkil topdi, agrar soha olimlarining yirik maktablari yaratildi.

Mamlakatning intellektual mulki hisoblangan agrar soha olimlari, malakali oliy ma'lumotli mutaxassislari, yaratilgan va ishlab chiqarishga joriy etilgan ilmiy-texnik mahsulotlarni ham ta'bir joiz bo'lsa mubolag'asiz qishloq xo'jaligi tarmog'i faoliyatining hosilasi deb atash ham mumkin. Chunki bozor iqtisodiyoti nazariyasi jihatidan yondashadigan bo'lsak, iqtisodiy va ijtimoiy hodisalar jamiyatda ma'lum talab bo'lgan holdagina mavjud bo'ladi, rivojlanib boradi. Bu yerda bozor talabini shakllantiruvchi tarmoq sifatida qishloq xo'jaligi tarmog'ining faoliyati e'tiborga loyiq.

Yuqorida ta'kidlangan masalaga qaytgan holda boshqa jihatdan yondashadigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat iqtisodiyoti, agrar ilm-fani va umuman insoniyat oldidagi yana bir muhim vazifasi mavjudki, ushbu vazifa dunyo aholisi tomonidan So'nggi 20–30 yil davomidagina rostakamiga dolzarb masala sifatida ilgari surila boshlandi.


Bu vazifa – qishloq xo'jaligi tarmog'ining “Qishloq xo'jaligi ekinlarining genofondini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish” vazifasidir.

Ma'lumki, dunyo bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab muttasil ravishda ham, miqdoran ham sifat jihatidan ortib borishi, agrar resurslardan foydalanishdagi tejamkorlikka e'tiborsizlik, agrar tarmoq faoliyati bilan bog'liq atrof muhit, tabiiy resurslar (yer maydonlari, suv resurslari, atmosfera) sifati buzilib ekologik muammolar paydo bo'lishi, insonning tabiiy resurslarga nisbatan “beshafqatligi” natijasida madaniylashgan qishloq xo'jaligi ekinlari genofondini saqlab qolish masalasi xavf ostida qola boshladi.

Bunday genofond asosini odatda – madaniylashtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlari tashkil etadi. Respublikamizda qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlari, asosan, tog'li, tog' oldi hududlarning maxsus muhofaza qilinadigan qismlari va shuningdek, qo'riqlanadigan hamda qo'riqlanmaydigan o'rmon xo'jaliklari yerlarida yovvoyi holda o'suvchi ekinlar sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ba'zi yovvoyi turlar aholi yashash manzillari atroflarida, ekin maydonlari chetlarida ham kam holda uchraydi.

Bunday noyob yovvoyi ekinlar (ko'p yillik daraxtlar) qatoriga respublikamizning tog'li hududlari va tog' oldi maydonlarida – yovvoyi holda o'suvchi grek yong'og'i, yovvoyi pista, yovvoyi bodom, olmaning yovvoyi turlari kabi ko'p yillik daraxtlarni, tog' piyoz (anzur), yovvoyi arpa kabi o'simliklarni kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlari yuqori hosildorlikka ega bo'lgan, kasallik va zarurkunandalar, qurg'oqchilikka, ekstremal iqlim vaziyatlariga chidamli, ozuqa xususiyatlari yuqori bo'lgan yangi navlar yaratish, mavjud navlarni takomillashtirishda almashtirib bo'lmaydigan noyob genetik fond hisoblanadi. Chunki odatda inson faoliyati natijasida yaratilgan madaniylashtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlari navlari ekib foydalanish davri mobaynida aynib boradi va navdorlik ko'rsatkichlarini yo'qotib borish xususiyatlariga ega bo'lganligi boisdan doimiy ravishda yangilab borishni taqozo etadi (1-rasm).



1-rasm: Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini muhofaza qilish va samarali foydalanish yo'nalishlari⁴

4 Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



Madaniylashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini saqlab qolish zaruratini ularning jamiyat uchun bevosita iqtisodiy ahamiyati jihatidan baholaydigan bo'lsak: birinchidan, jamiyat a'zolarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'min etish; ikkinchidan, sanoat tarmoqlari, xususan farmatsevtika sanoatiga (ayrim ekinlar uchun) qayta ishlash maqsadida xom ashyo yetkazib berish; uchinchidan, qishloq joylarida istiqomat qiladigan aholini ish joylari va daromad bilan ta'min etish borasidagi ahamiyati e'tiborga olinadi. Shuning uchun ham ta'kidlangan masala quyidagicha asoslanishi mumkin:

- mavjud ekinlar navlarini takomillashtirishda, qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklari va zararkunandalarga o'ta chidamlilik xususiyatlarini namoyon qiluvchi genlar (masalan bug'doyning zararli kanallari, kartoshkaning virus kasalliklari, g'alladoshlarining o'sishi va rivojlanishini pasaytiradigan viruslar kabilar) manbai sifatida;
- mavjud ekinlar navlarini takomillashtirishda, tabiatning ekstremal vaziyatlariga o'ta chidamlilik xususiyatlarini namoyon qiladigan genlar manbai sifatida (hudud uchun xos bo'lgan qurg'oqchilik, jazirama issiq va yozgi garmsel shamollar, tuproqning sho'rlanishi darajasi va boshqalar);
- mavjud ekinlar navlarini takomillashtirishda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozordagi talabga ta'sir etadigan sifatini belgilovchi foydali xususiyatlarini yaxshilash imkonini beradigan genlar manbai sifatida (masalan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi vitaminlar miqdori, yog'lilik darajasi, bug'doyning tarkibidagi oqsil va kleykovina moddalarini oshiruvchi genlar manbai sifatida);
- turli qishloq xo'jaligi ekinlarining serhosil, bozor talabi doirasidagi sifatli mahsulot beradigan, ekinlarning kasallik va zararkunandalariga hamda tabiatdagi ekstremal vaziyatlarga chidamli yangi navlarini yaratishda genetik baza sifatida.

Bugungi kunda ilmiy farazlar va turli prognozlar doirasidan tashqariga chiqib real hayotga aylanib borayotgan global iqlim o'zgarishi hodisasi, qishloq xo'jaligi ekinlarining iqlim o'zgarishlari salbiy oqibatlariga qarshi tura oladigan va tezlikda moslasha oladigan navlarini yaratishni taqozo etadi.

Agarda masalaga qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'min etish nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, muammoning yechimlari ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlaridan genetik resurs sifatida foydalanishga bog'liq bo'ladi. Demak, qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlari o'sadigan tog' oldi va tog'li hududlarda ekinlarni ma'muriy qo'riqlash ishlari bilan bir qatorda tashkiliy va iqtisodiy dastaklardan ham samarali foydalanish zarurati ortib bormoqda. Lekin ma'muriy qo'riqlanuvchi hududlarda qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini saqlab qolish va samarali foydalanish nisbatan katta imkoniyatlarga ega bo'lib qolmoqda (1-rasm).

XULOSALAR

Madaniylashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini muhofaza qilish zarurati birinchidan, jamiyatda oziq-ovqat muammosini hal etish; ikkinchidan, sanoatga xom ashyo yetkazib berish; uchinchidan, qishloqlar aholisini daromad bilan ta'minlashdagi ahamiyati bilan bog'liq. Bunda:

- yovvoyi turlarning kasallik va zararkunandalarga chidamlilik xususiyatlarini namoyon qiluvchi yangi navlar uchun genlar manbai sifatida;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorgirlik xususiyatlarini yaxshilash imkonini beradigan genlar manbai sifatida (vitaminlar, yog'liligi, oqsil va kleykovina moddalarini oshiruvchi genlar manbai sifatida);
- qishloq xo'jaligi ekinlarining serhosil, bozor talabi doirasidagi sifatli mahsulot beradigan, ekstremal vaziyatlarga chidamli yangi navlarini yaratishda genetik baza sifatidagi ahamiyati e'tiborga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Франкевич Н. Дикие сородичи культурных растений юго-западного Копет-Дага и мероприятия по их охране. / авт. диссер. на канд. биол. наук. –1983. Ленинград., Данилова Н., Семенова В. Дополнительный список диких родичей культурных декоративных и лекарственных растений флоры якутии. –Вестник Алтайского государственного аграрного университета. -№9 (1017), –2013. –с. 43–46., Костаньеда-Альварез. Диких родственников культурных растений также нужно сохранять в генетических банках. Биотехнология, генетические банки, генетические разнообразия, культурные растения. -ИА. Научная Россия. –2016. -№23., Дугина Е. Современные растения и их дикие предки. (2018 г.). <https://www.liveinternet.ru/users/4742304/post440534256/>, Груммо Д., Зеленкевич Н. Опыт стоимостной оценки биологического разнообразия и экономических услуг. -Минск. -"Конфидо". –
2. Ажиев А. К изучению видового состава диких сородичей культурных растений Каракалпакстана и Хорезма. <http://scientificjournal.ru/images/PDF/2016/VNO-21/k-izucheniyu-vidovogo-sostava.pdf>, Абдуллаев Ф., Якубов М. Национальная информационная система по диким сородичам культурных растений в Узбекистане. –Алма-Ата.



Тезисы докладов научной конференции молодых ученых и аспирантов. –3–4 декабря 2009 г. –с. 60., Қайимов А., Чернова Г. М., Холмуротов М. Йўқолиб кетаётган ноёб ҳандон пистанинг маҳаллий навлари селекцияси // Экология хабарномаси. –Тошкент, 2010. – №2, – Б. 36–37., Чернова Г. М., Султанов Р. А., Мухсимов Н. П. О проблеме сохранения и рационального использования дикорастущих сородичей фисташки Бабатага // -Региональная конференция молодых ученых 11–12 октября 2005. -Самарканд, – С. 54–57., Холлиев Ш., Хушматов Н. Қишлоқ хўжалиги барқарорлигини таъминлашда биогенетик ресурслардан самарали фойдаланиш масалалари. Илмий-амалий анжуман тезислари тўплами. ГулДУ. –Гулистон: -Декабрь. –2008. –76–78 б., Холмўминов Ж., Скрипников Н. Правовое регулирование использования и охранк диких сородичей культурнқ растений в республике Узбекистан. <https://articlekz.com/article/7139>.

3. D. N. Saidova, I. B. Rustomova, Sh. A. Tursunov. “Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi”. O’quv qo’llanma. T.: “O’zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi” bosmaxonasi nashriyoti, 2016. –257 b.
4. Sh. B. Xolliyev. Madaniylashgan qishloq xo’jalik ekinlari yovvoyi ajdodlarining genofond sifatidagi ahamiyati. O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali. T.: 1/2022.
5. Sh. Kholliyev. Cultivated crops wild the importance of ancestors as a genetic resource and the need for their effective use. Asian Journal of Research in Business Economics and Management ISSN: 2249–7307 Vol. 12, Issue 3, March 2022 SJIF 2022 = 8. 529 A peer reviewed journal.
6. Xolliyev Sh. Qishloq xo’jalik ekinlarining yovvoyi ajdodlaridan foydalanish iqtisodiy samaradorligini oshirish. Monografiya. Qarshi. 2022-y.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

